

BOLALARDA MULOQOTNI SHAKLLANTIRISH

*Atamurodova Jamila Begmurodovna
JDPU o‘qituvchisi*

Annotatsiya: Ushbu maqolada bolalarni Vatanga muhabbat, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, muomila madaniyati, atrof-muhitga nisbatan ehtiyyotkorona munosabat bo‘lishga e’tibor berish haqida fikrlar bildirilgan.

Аннотация: В статье выражены взгляды детей на любовь к Отечеству, уважение к семье, национальным, историческим и культурным ценностям своего народа, культуру общения, заботу об окружающей среде.

Annotation : This article expresses the views of children on the love of the Fatherland, respect for the family, national, historical and cultural values of their people, the culture of communication, care for the environment.

Kalit so’zlari: Axloq, muomila, oila, tarbiya, ona-onsa, bola, qadriyat

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019yil 8-maydagi “O‘zbekiston Respublikasi 2030 yilgacha maktabgacha ta’lim tizimini rivojlantirish” bo‘yicha kompleks chora-tadbirlar rejasini o‘z ichiga olgan bo‘lib, mamlakatimizda o‘sib borayotgan avlodni sog‘lom va har tomonlama yetuk voyaga yetkazish, ta’lim-tarbiya jarayoniga samarali ta’lim va tarbiya shakllari hamda usullarini joriy etishga qaratilgan maktabgacha ta’limning samarali tizimini tashkil etish bo‘yicha keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda.

Respublikamizda maktabgacha yoshdagi bolalarni intellektual, axloqiy, estetik va jismoniy jihatdan har tomonlama rivojlantirish uchun sharoitlarni yaratish maktabgacha ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonini tashkil qilishning zamonaviy usullari joriy etilmoqda. Ta’lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish bolalarning rivojlanganligi darajasini va ularning umumiy boshlang‘ich ta’limga tayyorligini, shuningdek, ularning ijtimoiy, shaxsiy, hissiy, nutqiy, jismoniy va ijodiy rivojlanishini baholash asosida amalga oshirilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasining ilk va maktabgacha yoshdagi bolalar rivojlanishiga qo‘yiladigan davlat talablarida bolani tug‘ilgandan 7 yoshgacha bo‘lgan davri belgilangan bo‘lib bunda beshta asosiy rivojlanish sohalarini o‘z ichiga olgan va bu har bir rivojlanish sohasi o‘z o‘rnida kichik sohalarga bo‘lingan bo‘lib, ular har bir yosh guruhiga mos bir nechta talablardan iborat. Bular quyidagilardan ko‘rinadi: jismoniy rivojlanish va sog‘lom turmush tarzining shakllanishi, ijtimoiy-hissiy rivojlanish, nutq, muloqot, o‘qish va yozish malakalari, bilish jarayonini rivojlanishi, ijodiy rivojlanish bu sohalar sog‘lom rivojlanayotgan bolalarda Vatanga muhabbat

hissini, oilaga, o‘z xalqining milliy, tarixiy, madaniy qadriyatlariga hurmat, atrof-muhitga nisbatan ehtiyotkorona munosabatni shakllantirishga alohida e’tibor qaratilmoqda.

Bolalarni nutq, muloqot jarayonida tili chiqayotgan paytdan shakllantirib, asta-sekin rivojlantirish lozim. Buning uchun kattalar bolani so‘zlarni to‘g‘ri talaffuz etishiga, ma’noli so‘zlarni bog‘lab gapirishiga va nutqi boy bo‘lishi uchun yoshiga mos kitoblar o‘qishga, o‘qigan kitobining ma’nosini gapirib berishiga, ijobjiy va salbiy obrazlarga mustaqil fikr bildira olishlariga katta e’tibor berish kerak. Yuqorida ta’kidlanganidek, bola bilan ko‘proq suhbatlashish, bergan savollariga vazminlik bilan o‘ylab javob berish, bolaga yoshligidan nutq madaniyatini, suhbatlashish odobini o‘rgatish, bolaning so‘z boyligini boyitish uchun bolani kitobga, o‘qishga, qiziqarli she’rlar yod olishga qiziqtirish kerak bo‘ladi. Bola qancha ko‘p she’r yod olsa, uning xotirasi shuncha kuchli rivojlanma boradi. Bolaga yoshligidan kitobga ixlosmandlikni o‘rgatish, qiziqarli kitoblarni, ayniqsa, o‘zbek xalq ertaklarini o‘qib berish, 3-4 yoshga kirganda o‘qib berilgan ertakni qanday tushunganini so‘rash, ertak bo‘yicha qisqa savollar berish va bolani shu savolga javob berishga asta-sekinlik bilan, shoshmasdan o‘rgatishi, ota-onasini har kungi odat bo‘yicha sabr-toqat, diqqat, mehribonlik, talabchanlik bilan farzandlari bilan munosabatda bo‘lishlari bolalarda muomila, so‘z, nutqini yanada rivojlantiradi. Bolalarga yoshlikda muloyimlik bilan, tabassum qilib, ochiq, samimi gapirish, ovozni baland ko‘tarmasdan, ma’noli, foydali, yoshiga munosib so‘zlarni gapirish, insonni masxara qiladigan, ichini og‘ritadigan kinoyali, g‘arazli so‘zlarni so‘zlamaslik, odamlarning gapini bo‘lmaslik, boshqalarning so‘zini tinglay bilish kabi xislatlarni tarbiyalab borish zarur. Shunday ekan bolalarga yoshlikdan axloqiy madaniyatning eng muhim elementlari ya’ni muomala odobini o‘rgatish muhim xisoblanadi. O‘zbek oilasining mentalitetida bolajonlik, iymon, oilaning muqaddasligi, o‘zaro ko‘mak, naslni davom ettirish, mehnatga, kattalarga hurmat va muhabbat ruhi ustun turadi. Bu bilan biz G‘arb oilalaridan keskin farq qilamiz. Muomala odobini quyidagi: er va xotin, ota-onasini farzandlar, erkaklar, ayollar, yoshlari, qariyalar, kasbdoshlar muomala odoblari kabi turlarga bo‘lish mumkin. Muomala odobining bu turlari har bir insonning burch va vazifalaridan kelib chiqqan holda amalga oshadi Ulug‘ o‘zbek ma’rifatparvar olimi Abdulla Avloniy ta’kidlanganidek: “Tarbiya biz uchun yo hayot — yo mamot, yo najot — yo halokat, yo saodat — yo falokat masalasidir”. Mamlakatimiz ta’lim-tarbiya tizimida maktabgacha ta’lim boshlang‘ich ta’lim hisoblanib, uning vazifasi bola ma’naviy-axloqiy qiyofasini shakllantirish, mustaqil dunyoqarashi, dastlabki mehnat ko‘nikmalarini rivojlantirish, bilim olishga ehtiyoj uyg‘otish, maktabgacha tarbiya va boshlang‘ich ta’limdagi uzluksizlikni ta’minalash, tarbiyanuvchilarining salomatligini mustahkamlashdan iboratdir.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlash kerakki, ertangi kunimiz va kelajagimiz aynan bugun maktabgacha ta’lim tashkilotlarida voyaga yetayotgan, tarbiyalanayotgan jajji farzandlarimizga bog‘liq.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh. Mirziyoevning 2019 yil 8 maydagi O‘zbekiston Respublikasi maktabgacha ta’lim tizimini 2030 yilgacha rivojlantirish konsepsiysi
2. Abdulla Avloniy. Abdulla Avloniy. Turkiy Guliston yoxud axloq. T.: 2018. 97 B.
3. Sher A. Axloqshunoslik. – T.: 2003, 204-b. 64.
4. Holmatova M. Oilaviy munosabatlar madaniyati va sog‘lom avlod tarbiyasi. – T.: O‘zbekiston. 2000, – 216 b.
5. Umarova M.M. O‘smirlarda oilaviy qadriyatlar to‘g‘risidagi tasavvurlar shakllanishining ijtimoiy-psixologik shart-sharoitlari: Dis. ... Psixol. fan. nomzodi: 19.00.05. O‘zR Oliy va o‘rta maxsus ta’lim vazirligi. M.Ulug‘bek nomidagi O‘zMU. – T., 2004.